

## GEOMETRIK NAQSHLI O'RILISHLARNI KOORDINATA USULIDA OLISH

Sh.R.Umarova

D.T.Nazarova

U.F.Erkinov

*Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti*

**Annotasiya:** Maqolada yangi naqsh o'rilishini tuzish etaplari keltirilgan. Ushbu o'rilish zamonaviy ko'p shodali va jakkard to'quv dastgohlari imkoniyatlaridan keng foydalanib, aralash o'rilishni olish usulini yangi qonuniyati keltirilgan. Bunda uskunaning assortiment imkoniyati oshib, to'qimaning badiiy bezalishi, tashqi ko'rinishi yaxshilanib, uning xaridorgirligini birmuncha oshiradi. Bu to'qima o'ziga hos bo'lgan naqshlari bilan ko'yakbop, kostyumbop ustki kiyimlar ishlab chiqarish uchun bevosita hizmat qiladi.

Mavjud o'rilish usullaridan foydalangan holda yangi o'rilish usulini ishlab chiqish va o'rilish parametrini aniqlash, yangi o'rilish uchun zamonaviy to'quv dastgohini tanlash, o'rilish dasturini tuzish, yangi naqsh o'rilishli to'qimani texnik hisobini bajarish, yangi naqsh o'rilishli to'qimani to'quv dastgohida ishlab chiqarish. To'qimani har xil variantlarda ishlab chiqish, ishlab chiqarilgan to'qimani fizik-mehanik xususiyatlarini aniqlash va uni kiyim sifatida tavsiya etiladi. Kordinata usulida to'qima ishlab chiqarishda bir qancha o'rilish turlarini aralshtirgan holda yangi o'rilish turini yaratish, yangi naqsh o'rilish turini yaratish asnosida dastgoh imkoniyatlaridan unumli foydalanish. Yangi naqsh o'rilishli to'qimani xususiyatlarini sinab ko'rish. Yangi naqsh o'rilishli kiyimbop to'qima uchun hizmat qiladi.

**Аннотация:** В статье представлены этапы создания нового узора. При создании нового способа проектирования комбинированных переплетений, эти ткани получаются с использованием возможностей современных многоремизных и жаккардовых машин. При этом увеличивая ассортиментные возможности оборудования, повышаются потребительские свойства, художественная отделка ткани и ее внешний вид. Эта ткань полученная узорами со своеобразным новым композиционным узором подходит для производства рубашек и костюмных изделий.

Разработка нового способа построение переплетения с использованием существующих способов переплетения и определение параметров скашивания, выбор современного станка для нового скашивания, создание программы скашивания, выполнение технического расчета ткани нового образца скашивания, изготовление ткани на ткацком станке нового образца. Рекомендуется разработать ткань в различных вариантах, определить физико-механические свойства полученной ткани и использовать ее в качестве одежды. Создание нового вида переплетения путем смешения нескольких видов переплетения при производстве ткани координатным методом, эффективное использование станков в процессе создания нового вида рисунка переплетения. Испытание свойств ткани нового рисунка, новый ткань используется для пошива костюмов.

**Annotation:** The article presents the steps for creating a new pattern. When creating a new method for obtaining mixed weaves, these weaves are produced using the capabilities of modern multi-shaft and jacquard machines. At the same time, expanding the possibilities of the range of equipment, its consumer properties, the artistic finishing of the fabric and its appearance will increase. This fabric, with its unique patterns, is directly suitable for the production of shirts and suits.

Development of a new method of constructing a weave using existing weaving methods and determining the beveling parameters, choosing a modern machine for a new beveling, creating a beveling program, performing a technical calculation of the fabric of a new beveling pattern, making a fabric on a new weaving machine. It is recommended to develop a fabric in various versions, determine the physical and mechanical properties of the resulting fabric and use it as clothing. Creation of a new type of weave by mixing several types of weave in the production of fabric by the coordinate method, the effective use of machines in the process of creating a new type of weave pattern. Testing the properties of the fabric of a new pattern, the new fabric is used for tailoring suits. Creation of a new type of weave by mixing several types of weave in the production of fabric by the coordinate method, the effective use of machines in the process of creating a new type of weave pattern. Testing the properties of the fabric of a new pattern, the new fabric is used for tailoring suits.

**Калит сўзлар:** Hosila o'riliishi, koordinata usuli, sarja, satin, geometric naqsh.

**Ключевые слова:** Производные переплетение, метод координатный, сарж, сатин, геометрический узор.

**Key words:** Derivative weave, coordinate method, twill, satin, geometric pattern.

To`qimachilik sanoati yildan - yilga rivojlanib bormoqda. Shu o`rinda to`quv dastgohlarini ham to`qima to`qish imkoniyatlari jadal rivojlanib bormoqda. To`quvchilikda yangi tuzilishli to`qimalar assortimentini iste`mol xususiyatlarini oshirishda o`riliish turlaridan ratsional foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda Sarja, Satin (Atlas) o`riliishi to`qimalarni naqshini shakllantirishda, to`quv dastgohida sakkiz shoda ishtirok etadi. Zamonaviy to`quv dastgohlarida esa yigirma sakkizta shodagacha ishtirok etish imkoniyati mavjud. O`riliishda shodalarni sonini oshishi to`qimani dizaynnini yaxshilashga imkon yaratadi. Bu esa yangi o`riliish turlarini ishlab chiqib, to`quv dastgoh imkoniyatlaridan keng foydalanishni talab etmoqda.

Shu sababli, mavjud hom ashylardan foydalangan holda, yangi o`riliish naqshini tuzib, raqobatbardosh naqshli to`qimalar ishlab chiqarish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

To`qimaning o`relish turlari bo`yicha bir qancha izlanishlar olib borilgan. Bir nechta o`rilichlarni aralashtirgan holda o`ziga hos bo`lgan naqshlar yaratish bo`yicha tadqiqot o'tkazildi. Shulardan bir o`riliishga boshqa o`relish orasiga aralashtirish usuli bilan hosil qilinadigan aralash o`rilichlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Maqolada koordinata usulida geometric naqshli o`rilichlarni olish etaplari keltirilgan. Ushbu o`rilichlarni ishlab chiqarish dastgohning assortment imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. [8] Tanlab olingan biror asos o`riliishni koordinata o`qlarini markazidan o`tgan

va teng taqsimlangan dioganal o`qlar bo`yicha joylashtirish usulida naqsh hosil qilingan. Koordinata usuli yangi usul bo`lib u quyidagi etaplardan iborat:

**1- Etap. Yangi yaratilayotgan usulda o`rilib naqshini hosil qilish uchun uning andozasini tayyorlash.**

Koordinata usulida o`rilib naqshini tuzish uchun, bo`lajak o`rilib andozasini (1-rasm) tuzamiz. Andozasini olishda fikran qaysi karetkali dastgohda to`qimani olishni oldindan bashorat qilib, naqshini katta yoki kichikligini hisobga olib, uni andozasi olinadi. O`rilib andozasida asos o`rilibdan nechtasi naqsh rapportida qatnashishi oldindan dasturlanadi va bu andoza naqshning umumiylarini belgilaydi. Masalan bizni andozamizga to`qqizta katak joylashtirilgan. Ma'lumki, prof.E.Sh.Alimbaev darsligida 1 krep o`rilibini olishda 4-katakli andoza keltirilgan. Bu andozada faqat krep o`rilibini olish uchun hizmat qiladi.[1]

Yangi koordinata usulida yaratilayotgan o`rilib uchun 1-rasmida keltirilgan andozaga asos o`rilib qilib sarja 1/3 va 4 shodali noto`g`ri satin o`riliblari tanlab olingan. Andozadagi raqamlar o`rniga shu o`riliblar koordinata usuli asosida joylashtiriladi. [10]


6	4	8
3	1	2
9	5	7

*1-rasm. O`rilib andozasi*

**2- Etap. Yaratilayotgan usul uchun asos o`rilibini tanlash.**

Ikkinchi etapda asos o`rilibini tanlab olamiz. Asos o`relish sifatida Sarja 1/3 (2-rasm) o`rilibini olamiz. Asos o`rilib uchun boshqa o`riliblarni ham tanlash mumkin.


Lekin asos o`rilibni tanlashda to`qimani qanday maqsadda qo`llanilishini va qaysi dastgohda ishlab chiqarilishini hisobga olish zarur bo`ladi.



*2-rasm. Tanlangan asos o`rilib Sarja 1/3*

**3- Etap. Tanlangan o`relish markazidan koordinata o`qlarini o`tkazish.**

Asos o`rilishni tanlab olganimizdan so`ng o`relish markazidan x-obsissa va y-ordinata o`qlari o`tkaziladi. (3-rasm)




*3-rasm. O`rilish markazidan obsissa va koordinata o`qlarini o`tkazish.*

#### 4- Etap. Koordinataning obsissa o`qiga o`relish joylashtirish

Asos o`rilish markazidan koordinata o`qlarini o`tkazganda, x musbat obsissa o`qiga va x manfiy o`qlariga o`rilihlarni joylashtirib chiqamiz. Markazdagi asos o`rilihimiz Sarja 1/3 o`rilihsining rapport tugagan joydan, obsissa o`qining x musbat va manfiy o`qlariga tandali 4 shodali noto'g'ri satin (4-rasm) o`rilihi joylashtiriladi.


[



*4-rasm. Obsissa o`qining x musbat va manfiy o`qlariga 4 shodali noto'g'ri satin o`riliшини joylashtirish.*


#### 5- Etap. Ordinata o`qlariga o`riliшини joylashtirish

Koordinataning obsissa o`qiga o`rilihsilar joylashtirilganidan so`ng, y- o`qining musbat va manfiy o`qlariga ham o`rilihsilar (3.5-rasm) joylashtirib chiqiladi.



*5-rasm. Ordinata o'qining musbat va manfiy o'qlariga 4-shodali noto'g'ri satin o'riliшини joylashtirish.*


**6- Etap. Obsissa va koordinata o'qlari orasidan diogonal chiziqlar o'tkazish**  
O'riliшlarimizga teng taqsimlangan diagonal chiziqlarni (6-rasm) o'tkazib chiqiladi.



*6-rasm. O'riliшlarimizga teng taqsimlangan diagonal chiziqlarni o'tkazib chiqish.*

**7- Etap. Diogonal chiziqlarga o'tkazib joylashtirish**


Diogonal chiziqlar o'tkazilgandan so'ng obsissa va koordinata o'qlarini musbat yo'nalishlaridan o'tkazilgan diogonal yo'nalishiga va shu musbat va manfiy yo'nalishlardagi chiziqliga navbat bilan o'riliшlar joylashtirib chiqiladi (7-rasm). O'riliшlar naqshini simmetrik chiqishini hisobga olgan holda o'zgaruvchan siljishlarda tuzilishi mumkin. Bu usul qonuniyatidan foydalanib, to'qimada turli xildagi naqshlarni olish to'qimani jozibador xaridorgir qilish imkoniyatini yaratadi. Barcha o'zgarishlarni etaplarda batafsil keltirilishi shart.



*7-rasm. D va z o'qlarini musbat yo'nalishlari va manfiy yo'nalishlaridagi chiziqqa o'riliшlar joylashtirib chiqish.*

#### 8- Etap. Naqsh chetiga boshqa koordinata asosida bezak berish

7-etapdagи orilishni zamonaviy to'quv dastgohining kompyuter boshqaruв tizimiga kiritib ishlab chiqarish va iste'molga berish mumkin. Shuningdek yaratilgan naqshni jozibadorligini yanada oshirish uchun, uning chetini boshqa o'riliш bilan bezash mumkin.(8-rasm)



*8- rasm. Tuzilgan o'riliш naqshni chetlarini boshqa o'riliш bilan bezash.*

Olingan naqshni nazariy asoslash va o'riliшning umumiy rapportini aniqlashda quyidagi formuladan foydalanildi. Sarja 1/3 o'nsit tanlangan. Siljish S=1 o'zgaruvchan qabul qilish mumkin. [14] Asos o'nsit rapport  $R_{as}=4$  tanda raporti  $R_t$  va arqoq o'riliшlari rapport  $R_a$  quyidagicha aniqlanadi:

$$R_t = R_a = K \cdot (2 \cdot R_{as}) + R_{as} = 1(2 \cdot 4) + 4 = 12 \text{ip} \quad (1)$$

O'riliшimizda aсос ўрилишни кучайтирилиши  $K=1$  qabul qilib olamiz:

$$R_t = R_a = K \cdot (2 \cdot R_{as}) + R_{as} = 2 \cdot (2 \cdot 4) + 4 = 20 \text{ip} \quad (2)$$

Ikkinci marta kuchaytiranimizda  $K=2$  qabul qilamiz:

Formuladan ko'rinish turibdiki usul o'riliш qonuniyatiga ega. Aniqlangan son 7-rasm va 9-rasm o'riliшlardagi tanda va arqoq iplarining soniga teng. Yuqorida o'riliшimizni oddiy variantini ko'rib chiqdik. Bu yangicha o'riliшni bir necha barobar kuchaytirib, o'ziga xos bo'lgan naqsh o'riliшlarini ham olish mumkin. Misol uchun

yuqorida andoza sifatida qabul qilgan chizmamizni 2 marta kuchaytirilgan variantini ko`rib chiqsak (9-rasm);

<b>24</b>	<b>20</b>	<b>12</b>	<b>18</b>	<b>22</b>
<b>16</b>	<b>8</b>	<b>4</b>	<b>6</b>	<b>14</b>
<b>11</b>	<b>3</b>	<b>1</b>	<b>2</b>	<b>10</b>
<b>15</b>	<b>7</b>	<b>5</b>	<b>9</b>	<b>17</b>
<b>23</b>	<b>19</b>	<b>13</b>	<b>21</b>	<b>25</b>

**9-rasm. Ikki marta kuchaytirilgan asos o'riliш andozasi.**

Bunda o`riliшning umumiy nstitu  $R = 20$  ga teng bo`ladi.

To`qima o`nstit turlari bo`yicha bir nechta o`riliшlarni aralashtirgan holda o`ziga hos bo`lgan naqshlar yaratish bo`yicha bir qancha izlanishlar o`tkazildi. Shulardan bir o`riliшga boshqa o`nstit orasiga aralashtirish usuli bilan hosil qilinadigan aralash o`riliшlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. To`qimaning tuzilishiga bir qancha faktorlar ta`sir qilishi mumkin. Bular iplarning chiziqli zichligi, 10 sm da joylashgan iplar soni, xom ashyo turi, to`qimaning o`riliшi turi, qalinligi, iplarning to`qilishda qisqarishi, iplarning tarangligi ta`sir etadi. To`qima o`riliшi bu to`quv uskunalarida tanda va arqoq iplarini to`qishda ularni o`zaro qoplanishlar tartibini ko`rsatadi. To`qimaning o`riliшi to`qimaning tashqi bezagi jilolanishiga, xom ashyonni sarf bo`lishiga ham ta`sir etadi. Bir xil sondagi tanda iplaridan o`riliш hisobiga turli bezakka ega bo`lgan to`qimalar olish mumkin. To`qimalar ma`lum uzunlikda, qalinlikda, zichlikda bo`ladi. To`quv dastgohida yangi naqsh o`riliшli to`qimani to`qish uchun dastgohni asosiy parametrlarini ishlab chiqish lozim bo`ladi. Buning uchun to`quv labaratoriyasida Somet to`quv dastgohida asosiy parametrlar ishlab chiqildi va o`rnatildi.

Yangi usulda yaratilgan o`riliшni ishlab chiqarish zamонави dastgohlar imkoniyatidan to`liq foydalanib jozibador kostymbop to`qimalarni assortimentini kengaytirib, to`qimani eksport salohiyatini oshirishga olib keladi.

Tanlab olingan (Sarja 1\3) asos o`riliшni koordinata o`qlarini markazidan o`tgan va teng taqsimlangan diogonal o`qlar bo`yicha joylashtirish usulida naqsh hosil qilinganligi natijasida, o`riliш naqshi dizaynni turli shaklda o`zgartirish, zamонави ko`p shodali va jakkard to`quv dastgohlari imkoniyatlaridan keng foydalanib, aralash o`riliшni olish usulini yangi qonuniyati yaratilgan. Bunda uskunaning assortiment imkoniyati oshib, to`qimaning badiiy bezalishi, tashqi ko`rinishi yaxshilanib, uning xaridorgirligi va raqobatbardoshliligini birmuncha oshiradi.

**REFERENCE:**

1. Alimbayev E.SH. Teoriya stroyeniya tkaney. Uchebnik(uzbekskom yazike To`qima tuzilishi nazariyasi) Tashkent “Alokachi”, 2005г. -C.- 93-95.

2.Siddikov P.S., Torebayev B.P., Yeserkenov B. Texnologicheskiye ossobennosti v protsesse izgotovleniya avrovix tkaney v sentralnoy Azii. YUKGU, Shimkent. TrudiMejdunarodnoy nauchno- prakticheskoy konferensii. Tom-4 2013. -C. -174-177.

3. P.S. Siddikov, T.M. Mavlonov, M.Y. Tashmetov, N.B. Ismatov. Vliyaniye gamma izlucheniy na fiziko-mekanicheskiye svoystva avrovix tkaney.. Dokladi Akademii nauk Respublikи Uzbekistan. .. Т.:”Fan” AN Ruz. 2015. -C. -27-29.

4.Torebayev B.P., Siddiqov P.S., Xonazarova K.O., Saidmuratova S.S., Turibekov O.S., Saksen. Klassicheskiy tekstilniy risunok – poloska i yeje aktualnost v sovremennoy mode. Ivanova. Izv VUZov. Texnologiya tekstilnoy promishlennosti. №5, 2020. – C. 142-148.

5. С.А.Хамраева, Д.Т.Назарова, Ж.Г.Холмуратова “Исследование износостойкости ткани для специальной одежды” /Advances in Science and Technology” Международная научно-практическая конференцияда. Москва 2019 г. 15 сентябр. -С 67-68.

6.Siddikov P.S. Osnovi sozdaniy texnologii i optimizatsiya protsessov pri izgotovlenii nansionalnix avrovix tkaney-T.:”Fan va texnologiyalar”, 2017, -C. 157-170.

7. Umarova M. O; Siddikov P. S., Yusupova N.B., Komilov A. K.uli. Structure of national avry hair tissue and specificity of its production // Academicia a n international multidisciplinary researchjournal (double blind refereed & peer reviewed journal). Issn: 2249-7137 vol. 11, issue 2, institut 2021 impact factor: sjif 2021 = 7.492. P.

8.Khamraeva S.A., Nazarova D.T. Research of the breaking load of fabrics for overalls //AIP Conference Proceedings 2467, 060006 (2022).

9.Siddiqov P.S., Artikova D.I. Milliy matolar va ularni turlarini kengaytirish. To‘qimachilik muammolari. “№3, 2017.- B. - 54 - 59.

10. P.S.Siddiqov, N.B.Yusupova, I.B.Raxmonov. «Xonatlas», «Adras» kabi milliy avli to‘qimalarning naqsh rapportini uskuna konstruksiyasiga bog‘liqligi // Namangan muxandislik texnologiya institute ilmiy texnika jurnali, ISSN 2181 - 8622, 2018й № 1, 54-59 6.

11.SiddiqovP.S., N.B.Yusupova. National avrova fabrics and peculiar production technologies // Proceedings of the uzbek-japan symposium on ecotechnologies Innovation for sustainability-harmonizing science, technology and economic development with human and natural environment ”Proceedings of the uzbek-japan symposium on ekotechnologies” журнал. Ташкент. Изд-во “Илмий техника ахбороти-press”, 2016. -C. 87-92.